

O'ZBEKLARDA GENDER MUNOSABATLARINING OILAVIY VA NIKOH MAROSIMLARIDA IFODA ETILISHI MASALASIGA DOIR

Abdumatov Alisher Axmatkulovich ,
GulDU "Tarix " kafedrası o'qituvchisi
Abdumo'minova Marjona Yaxshilik qizi,
Tarix yo'nalishi , 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalqining etnik tarixiy shakllanish jarayonlari, urf-odat va marosimlarida gender munosabatlarining ifodalanish masalalari tahlil qilinadi. Mualliflar o'zbeklarda oilaviy hayot va nikoh marosimlarining qadimiy ildizlari, ularning ijtimoiy va ma'naviy mohiyatini yoritgan holda, erkak va ayol o'rtasidagi tenglik, ularning oilaviy, maishiy hamda jamoaviy hayotdagi o'rni va ishtirokini ko'rsatib o'tadilar. Maqolada tarixiy-etnografik manbalar asosida urug'-qabilachilik davridan boshlab hozirgi zamonaviy o'zbek oilasigacha bo'lgan jarayonda gender rollarining o'zgarishi, nikoh va to'y marosimlarining ijtimoiy ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, mustaqillik davrida ayollar mavqeyining oshishi, oilaviy tenglik tamoyillarining mustahkamlanishi, an'anaviy urf-odatlarining zamonaviy ruhda davom etayotgani alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: o'zbeklar, gender munosabatlari, nikoh marosimlari, oilaviy an'analar, urug'-qabilachilik, jamoatchilik, etnografiya, tenglik, ayollar mavqei, zamonaviy oila.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы этноисторического формирования узбекского народа, вопросы выражения гендерных отношений в традициях и обрядах. Авторы освещают древние корни узбекской семейной жизни и брачных обрядов, их социальную и духовную сущность, равенство мужчин и женщин, их место и участие в семейной, бытовой и коллективной жизни. В статье на основе историко-этнографических источников анализируется изменение гендерных ролей, социальной значимости брака и свадебных обрядов в процессе от эпохи родо-трибализма к современной узбекской семье. Также подчеркивается, что в период независимости повысился статус женщин, укрепились принципы семейного равенства, а традиционные обычаи продолжились в современном духе.

Ключевые слова: Узбеки, гендерные отношения, брачные обряды, семейные традиции, родо-трибализм, община, этнография, равноправие, статус женщины, современная семья.

Abstract. This article analyzes the processes of ethnic historical formation of the Uzbek people, issues of expression of gender relations in traditions and rituals. The authors highlight the ancient roots of Uzbek family life and marriage ceremonies, their social and spiritual essence, equality between men and women, their place and participation in family, household and collective life. The article analyzes the change of gender roles, the social significance of marriage and wedding ceremonies in the process from the era of clan-tribalism to the modern Uzbek family based on historical and ethnographic sources. It is also emphasized that during the period of independence, the status of women increased, the

principles of family equality were strengthened, and traditional customs continued in a modern spirit.

Key words: *Uzbeks, gender relations, marriage ceremonies, family traditions, clan-tribalism, community, ethnography, equality, status of women, modern family.*

O'zbek xalqining kelib chiqishi, etnik tarixi va xususiyatlari murakkablikda namoyon bo'ladi. Bunday murakkab jarayonlar oqibatida o'ziga xos yuksak moddiy va ma'naviy madaniyat yaratgan iste'dodli, zahmatkash ajdodlarimiz o'zining milliy xususiyatlarini hozirgacha saqlab qolgan. Barcha etnoslar, jumladan o'zbeklar ham, qabila, urug'lar, qavm-qarindosh va jamoa ijtimoiy guruhlar va tabaqalaridan tashkil topgan har bir xalq muayyan hududga birlashib, shu hududda shakllanadi va rivojlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, turmush va madaniyatga qarab ham muayyan elat va xalqlarni anglash mumkin.

O'zbek an'anaviy ijtimoiy va oilaviy turmushi Temuriylargacha saqlanib kelgan, jamoatchilik, qo'shnichilik va qishloq tadbirlari, katta oilaning ibrat bo'lishi, ayrim guruhlarda ko'chmanchilik turmush tarzi va urug'-qabilaviy elementlar, qadimiy marosimlar va ibodatlar keng tarqaldi. Ular umumiy jamoa imoratlari, to'y-tomosha va ma'raka o'tkazish uchun ma'lum tartib-qoida mezonlariga amal qilganlar. Mahallalar, shahar, qishloq aholisi oilaviy bayramlar va to'ylarni, dafn marosimlarini va sayllarni o'tkazishda jamoatchilik an'anasiga binoan umumiy vazifa sifatida erkak va ayollar faol ishtirok etishlari shart bo'lgan. Oilaviy va nikoh masalalari ham ayrim oilalar doirasi bilan cheklanmay, qavm u-qarindosh va yaqin qo'ni-qo'shnilarning ishtiroki bilan hal qilingan. Jamoatchilik tuzumi davridan saqlanib kelgan jamoatchilik an'analari mahalliylikda ham namoyon bo'ladi.

Urug'-qabilachilik an'analari ancha mustahkam saqlangan o'zbeklarda boshqa xalqlardagidek, ekzogam nikoh bo'lmagan, aksincha ularda kuzen nikoh, ya'ni urug'dosh (amakivachcha, xolavachcha, amnavachcha) lar orasidagi endogam nikoh keng tarqalganligi XIX asr oxirlari – XX asr boshlariga kelib, asli urug'-qabilaviy munosabatlarning yemirilganligini ko'rsatadi. Ayrim etnik guruhlarda urug'-qabilachilik oilaviy nikoh munosabatlari va ijtimoiy-ma'naviy turmushga ancha kam ta'sir etgan.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, jumladan S.P. Tolstov va G.P.Snesarevlar aytishlaricha, o'tmishda o'zbeklarning urug'-qabilachilik saqlanib kelgan guruhlarida fraternal tashkilot belgilari namoyon bo'ladi. Bunday holat juft qabilalar nomidan o'z ifodasini topgan. Xorazmda qiyot-qo'ng'iroq, Zarafshon va Xorazmda xitoy-qipchoq qabilalar, ba'zan juft qabilalar orasida nikoh munosabatlari ustun turgan. Ba'zi olimlar (K.S. Shoniyozov va boshqalar) mazkur qabilalarning kelib chiqishi va tarixi har xil bo'lganligi tufayli fraternal tartibda emas, balki hudud asosida juftlanishganligini ta'kidlashadi.

An'anaviy fraternal dual tashkilotlarning qoldiqlari XX asr boshlarigacha ayrim shaharlar va yirik qishloqlarda raqobatchi jamoalar orasidagi tortishuvlarda ham namoyon bo'lib kelgan. Raqobatchilik udumlari qadimiy manzilgohlarni juft qismlari ikki yoki to'rt bo'linishida o'z ifodasini topgan, ular o'zaro raqobat qilib, maxsus tortishuv-bellashuv marosimlarini ochiq ekingoh maydonlarida o'tkazganliklari e'tirof etilgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Buxoroda ham asosan raqobat marosimlari hunarmand yigit-qizlar, yoshlar orasida o'tkazilgan. Rivoyatlarga ko'ra, shahar to'rt raqobatchi qismlarga bo'linib,

har bir qismi bilan raqobat turlari va bellashuvlar o'tkazilgan. Bu bellashuvlarda aholining barchasi, ham ayollar va ham erkaklar birdek ishtirok etgan.

Raqobatchilik marosimlari Buxoroda bahor faslida juda keng o'tkazilgan. O'zbeklarning ijtimoiy turmushdagi qadimiy o'ziga xos udumlarida yoshiga qarab guruhlariga bo'linishi bolalik, o'spirinlik, balog'at yoshi va qarilik bo'lib, u bilan bog'liq turli urf-odat, marosimlar mavjud ediki, ular hozirgacha saqlanib kelgan. Erkaklar va ayollar yoshiga qarab, o'z tengdoshlari bilan to'rtta guruhga bo'lingan, ularga har joyda har xil nom berilgan (qator, ulfat, tengqur, jo'ra) va ular o'z tengqurlari davrasini tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki, ayollarning ham erkaklarning kabi o'z tengqurlari davrasida qatnashadigan tantana, marosimlari bo'lgan.

Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, bir yoshdagi guruhdan ikkinchi yosh guruhga o'tish maxsus marosimlar orqali amalga oshirilgan. Har bir yoshdagi guruh o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan va ular kiyimidagi bezaklar, sochlarining shakli ijtimoiy burchi va xulq-atvori bilan ham biroz ajralib turgan. Masalan, Buxoro va Xorazmda yosh guruhlariga qarab kiyinish keng tarqalgan. Buxorolik qizlarning birinchi marta mursak, kaltacha kiyim kiyish maxsus odati bo'lgan. Farzandli bo'lgan ayol-onalar guruhi kiyinishida ham o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lgan. Ular bayramlarda, to'y-tomoshalarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlar. Erkaklarda yoshiga qarab jo'rachilik va ulfatchilik asosida tashkil qilinadigan gap, ziyofat hozirgacha saqlanib kelayotgan urf-odatlardan biridir. Ayniqsa, qish oylarida qishloqlarda gap qilish odat tusiga kirgan, shaharlarda ham bu odat mavjud bo'lib, uni nafaqat yoshiga qarab, balki kasb-hunar va tabaqalariga qarab ham tashkil qilishgan. Gap odatda kuzda boshlanib, butun qish bo'yi davom etgan. Ba'zi yerlarda ayollar ham gap qilishgan. Jumladan, Farg'ona, Xiva xonligi ayollari gap – ziyofat qilishgan. Tadqiqotchilarning fikricha, genetik jihatdan gap (ziyofat) ibtidoiy jamiyatlarda tarqalgan erkaklar ittifoqi shakllaridan biri hisoblanadi.

Maishiy turmushda ayrim urf-odat elementlari ibtidoiy onalik (matriarxat) urug'iga borib taqaladi. O'zbek oilasida hozirgacha ona tomonidan qarindoshlarning, ayniqsa, tog'aning roli katta hisoblanadi. Yoshga qarab guruhlash tartiblarining ayrim elementlari qavmu-qarindoshlik atamalarida ham o'z aksini topgan. O'zbeklarda ona va ota tomonidan qarindoshlar nomi farqlangan. Onaning aka-ukalari "amaki" deb nomlangan. Tog'aning mavqeyi amakidan balandligi – bu qadimiy avunkulat qoidalarining aks-sadosidir.

Qadimiy urug'-qabilaviy va jamoatchilik munosabatlarining ijobiy tarzda yangi davrgacha saqlanib qolishi o'zbeklarning turmush tarzida asrimiz boshlarigacha hukmron bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni inkor qilmaydi. Ayniqsa, jamoatchilik munosabatlari kollektiv va birlik tuyg'ularini, o'zaro yordam va hamkorlik urf-odatlari va hayotga tatbiq etib, singdirib, milliy jipslikni mustahkamlashda muhim omil hisoblangan. Hozirgacha mahallachilik an'analari yangi va zamonaviy ruhda ancha takomillasib, oilaviy-maishiy munosabatlarni mustahkamlab, barcha to'y-tomoshalarda va marakalarda ham o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlashga katta xizmat qilib kelmoqda. Muayyan tartib qabila yoki elatlar davrasida hamkorlik, ahillik tuyg'ularini singdirib, o'zaro yordam, hamdo'stlik, yoshi kattalarni hurmat qilish kabi ijobiy fazilatlarda namoyon bo'ladi. Bu muayyan holda islom ta'limotida muqaddaslashtirilib hamda qudratli Olloh taolo oldida teng va bir degan g'oyani yuzaga

keltirgan. O'zbeklarda o'tgan asr oxirlarda oilalarning tuzilishi va maishiy turmushida monogam nikoh hukmronlik qilsa-da, katta ajralmagan oilalar keng tarqalgan. Bunday oilalar bir necha avlodlardan tashkil topgan qarindoshlar birikmasi sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida bunday oilalar ancha kamaygan, katta oilalar jamoasi yemirila boshlagan. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida tovar-pul munosabatlarining rivoj topishi natijasida voyaga yetgan o'g'illarning uylanib, mustaqil oila qurish jarayoni ancha kuchaydi. Ota-ona oilasidan ajralib chiqib, alohida xo'jalik tashkil qilish kuchaydi. Ko'pchilik o'zbek oilalarida hozirgacha saqlanib kelinayotgan odat bo'yicha katta og'il uylanganidan keyin, unga uy qurib, ajratib chiqariladi.

Qadimiy fanda "minorat" deb nomlangan odatga binoan kichik o'g'il ajralmasdan, ota-onasini boqib, ularga qarab turishi shart bo'lgan. Lekin hozirda ota-onaning qaysi farzand bilan qolishi ota-ona tomonidan belgilanmoqda. O'zbek oilalarining turmush tarzi, madaniy va marifiy darajasi oila a'zolarining ijtimoiy holatiga bog'liq. Qishloq aholisining ancha qismi maxsus va o'rta ma'lumotga ega bo'lib, mutaxassis yigit-qizlar bo'lishi oilaviy-maishiy turmush munosabatlarining mohiyatini o'zgartirib, yangi urf-odatlar va marosimlarning paydo bo'lishiga, ma'lumotli ayollarning ko'payishi esa jamiyatdagi oilaviy munosabatlarda ayollarning mavqeyi va o'rnini yanada oshirilishida olib kelmoqda.

Nikoh marosimlari nafaqat O'rta Osiyo xalqlari orasida, balki o'zbeklarning ayrim etnografik guruhlari orasida ham bir oz farq qilinib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ammo nikoh asli ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ajoyib marosimlardan iborat bo'lib, unda barcha elementlar uchun zarur bo'lgan qonun-qoidalar o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, jamiyatning eng muhim hujayrasi bo'lmish oila nikohdan boshlanadi. Nikoh ibtidoiy jamiyat davridan boshlab maxsus urf-odatlar orqali oilaning bardam va mustahkam bo'lishiga qaratilgan jamoatchilik tomonidan nishonlanib, dastavval odat, keyinchalik yozma tarzda qonuniylashtirilgan marosimdir. Oilaviy va ommaviy bayram va sayllar, o'tkaziladigan qadimiy marosimlar ham nikoh masalalarini hal qilishga ko'maklashgan. Masalan, yoshlarni bir-biri bilan tanishtirish va yaqinlashtirishga qaratilgan yigit-qiz aytishuvlari, gul bazmlar, gul va olma hadya qilish kabi yoshlarning bahorgi o'yinlari va sayllari yangi oila yaratishga xizmat qilib kelgan. Bunday marosimlar zahirida ayol va erkaklarning tengligi yotadi.

Nikoh har bir xalqning ezguliklarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. O'zbeklarda qadimdan odat bo'lib kelgan yigit-qizlarning uchrashuvlari, erkin sevgi-muhabbat tuyg'ularini izhor qiladigan milliy urf-odatlariga ega nikoh va u bilan bog'liq qadimiy udumlarimiz, qiz-yigit aytishuvlari, yor-yorlari, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan nikoh marosimlari millatimizga, o'zligimizga xos bo'lgan yangi qirralarni namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi nikoh to'ylari, marosimlari va undan keyingi munosabatlar o'zbek xalqining turmushida jiddiy o'zgarishlar ro'y berganligidan, uning hayoti, turmush tarzi yangi davr talabiga javob beradigan darajada zamonaviylashib borayotganligidan dalolat beradi. Respublikamizning mustaqillik sharoitida erkaklar bilan xotin-qizlarning iqtisodiy-huquqiy tengligi ta'minlanib, ayollarni zo'rlab erga berish, ko'p xotinlilik, yosh qizlarni barvaqt turmushga chiqarish kabilar bartaraf etilmoqda. Oilaviy-maishiy munosabatlar hamda

demokratik tartiblarni o'rnatish, zamonaviy turmush-tarziga xos erkin oilaning shakllanishiga ijtimoiy-siyosiy zamin yaratib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАХАД МУХАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.
2. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.
3. Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O 'RTASIDAGI O 'ZARO HAMKORLIK. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).
4. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O 'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).
5. Юлдашевич, А. У., & Абдуматов, А. А. (2025). ЯНГИ ЙИЛ ТАНГАЛАРИ. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(32), 68-74.
6. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).
7. Абдуматов, А. (2024). АКАДЕМИК АР МУХАММАДЖОНОВНИНГ ТОПОНОМИКА ФАНИ РИВОЖИДАГИ РЎЛИ. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).